



UDK: 911.3:30/33:66.041(575.1)

Xidoyatxon ABDINAZAROVA,
Qo'qon davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: xidoyatabdinazarova@gmail.com

QDU professori v/b, g.f.d. O.Qo'ziboyeva taqrizi asosida

PHARMACEUTICAL INDUSTRY OF UZBEKISTAN: TECHNICAL AND ECONOMIC INDICATORS OF PRODUCTION AND REGIONAL LOCATION FACTORS

Annotation

This article presents a scientific analysis of the technical and economic indicators and regional location factors of Uzbekistan's pharmaceutical industry for the period 2018–2024. Based on statistical data, the dynamics of growth in the number of enterprises, volume of investments, product assortment, and export indicators are demonstrated. Factors influencing territorial distribution, such as raw material resources, demographic potential, transport infrastructure, economic environment, and proximity to consumer markets, are examined as geographical determinants. Based on the analysis results, conclusions and recommendations have been developed.

Keywords: Uzbekistan, pharmaceutical industry, technical and economic indicators, regional distribution, investment, export, medicinal plants, free economic zones, demographic factors, transport infrastructure.

ФАРМАЦЕВТИЧЕСКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ УЗБЕКИСТАНА: ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПРОИЗВОДСТВА И ФАКТОРЫ ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ технико-экономических показателей и факторов территориального размещения фармацевтической промышленности Узбекистана за период 2018–2024 годов. На основе статистических данных показаны тенденции роста количества предприятий, объема инвестиций, ассортимента продукции и экспортных показателей. В качестве географических факторов, влияющих на размещение, рассматриваются сырьевые ресурсы, демографический потенциал, транспортная инфраструктура, экономическая среда и близость к потребительским рынкам. По результатам анализа разработаны выводы и рекомендации.

Ключевые слова: Узбекистан, фармацевтическая промышленность, технико-экономические показатели, территориальное размещение, инвестиции, экспорт, лекарственные растения, свободные экономические зоны, демографические факторы, транспортная инфраструктура.

O'ZBEKISTON FARMASEVTIKA SANOATI: ISHLAB CHIQRISHNING TEXNIK IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA HUDUDIY JOYLASHUV OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 2018–2024 yillar oralig'ida O'zbekiston farmatsevtika sanoatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va hududiy joylashuv omillari ilmiy asosda tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlar asosida korxonalar soni, investitsiya hajmi, mahsulot assortimenti va eksport ko'rsatkichlaridagi o'sish tendensiyalari ko'rsatib berilgan. Hududiy joylashuvga ta'sir etuvchi omillar sifatida xomashyo resurslari, demografik salohiyat, transport infratuzilmasi, iqtisodiy muhit va iste'mol bozorlariga yaqinlik kabi geografik omillar tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, farmatsevtika sanoati, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, hududiy joylashuv, investitsiya, eksport, dorivor o'simliklar, erkin iqtisodiy zonalar, demografik omillar, transport infratuzilmasi.

Kirish. Farmatsevtika sanoati zamonaviy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Uning mamlakat aholisini dori-darmon bilan ta'minlashdagi roli, shuningdek, tashqi bozorlarga raqobatbardosh mahsulot eksport qilish imkoniyati uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil, 1 yanvardagi "2022 – 2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 55- sonli Farmoni qabul qilingan. Unda "...aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish maqsadi" belgilangan [1]. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda farmatsevtika sanoati tarmoqlarini rivojlantirishda ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va uning hududiy joylashuv omillarini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekistonda farmatsevtika sohasi uchun maxsus erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilganligi bu boradagi tadqiqotlarni olib borishni dolzarb qilib qo'ymoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tarixiy tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy geografiya metodlari hamda infografika va diagrammalardan foydalanildi. Ma'lumotlar manbalari sifatida 2018–2024 yillar oralig'idagi Davlat statistika qo'mitasi, "O'zpharmsanoat" uyushmasi va Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari asos bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari – bu korxona yoki butun bir sanoat tarmog'ining samaradorligi, texnologiyasi, iqtisodiy salohiyati va rivojlanish darajasini baholashda qo'llaniladigan aniq va o'lchanadigan ko'rsatkichlar majmuasidir [1]. Farmatsevtika sanoatida bu ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Texnik ko'rsatkichlar. Unda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi:

- Ishlab chiqarish quvvati (ming dona, tonna, upakovka va h.k.), bunda korxona yoki tarmoq yil davomida ishlab chiqara oladigan maksimal hajm hisobga olinadi;
- Mahsulot assortimenti (turlar soni), bunga ishlab chiqarilayotgan dori-darmon, biologik faol qo'shimchalar va boshqa preparatlar turlari kiradi;
- Asbob-uskunalarining texnologik darajasi, bunda jahon standartlariga mos avtomatlashtirilgan, GMP/ISO talablariga javob beradigan texnologiyalar mavjudligi hisobga olinadi.
- Ishlab chiqarish tsikl vaqti, ya'ni bir mahsulotni to'liq ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt hisoblanadi;
- Moddiy resurslardan foydalanish koeffitsienti, ya'ni, xom ashyoni, energiya va suv resurslarini tejamkorlik bilan ishlatish darajasi aniqlanadi.

2. Iqtisodiy ko'rsatkichlar. Bunga quyidagilar kiradi:

- Investitsiya hajmi (mln so'm/dollar), ya'ni yangi loyihalar, modernizatsiya, tadqiqotlar va quvvatni kengaytirishga sarflangan mablag'lar e'tiborga olinadi;
 - Korxonalar soni va faollik darajasi, unda faoliyat yuritayotgan farmatsevtika korxonalari soni va ularning iqtisodiy faollik darajasiga e'tibor qaratiladi;
 - Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm, mln upakovka), bunda yakunlangan mahsulot ko'lami hisoblanadi;
 - Daromad va foyda darajasi, ya'ni sotuvdan tushgan umumiy daromad va sof foyda hisoblab chiqiladi;
 - Eksport hajmi (mln dollar), bunda tashqi bozorlarga yetkazib berilgan mahsulot miqdori va qiymati hisoblanadi;
 - Ish o'rnlari soni, ya'ni bandlik darajasi, malakali mutaxassislar soni hisoblab chiqiladi;
 - Mahsulot tannarxi, bunda bir dona mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan umumiy xarajat hisoblanadi;
 - Soliq to'lovlari va byudjetga tushumlar, bunda korxonalarning davlat byudjetiga to'layotgan soliqlari nazarda tutiladi.
- Shuningdek, **qo'shimcha ko'rsatkichlar** ham e'tiborga olinadi, ya'ni ishlab chiqarish fondlarining to'liqligi va yangilanish koeffitsienti, ishlab chiqarish samaradorligi (bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot), ilmiy-tadqiqot va innovatsiya xarajatlari ulushi kabilar [7, 8, 9, 10, 11, 12].

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishining 2018-2024 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.1-jadval

O'zbekiston farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishining 2018-2024 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari

Yillar	Korxonalar soni	Ishlab chiqarilgan dori turi	Investitsiya (mln. doll)	Eksport hajmi (mln. doll)
2018	115	1220	74	19,6
2020	138	1450	110	35,2
2022	156	1790	128	42,5
2024	173	1925	151	56,8


Jadval statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, farmasevtika sanoatida korxonalar soni va ishlab chiqarish ko'lami 2018 yildagi 115 tani tashkil etgani holda, 2024 yilga kelib mazkur korxonalar soni 173 taga yetgan, ya'ni deyarli 50 foiz ortiq o'sish kuzatilgan. Bu o'sish, hukumat siyosatidagi transformatsiyalar, ya'ni farmatsevtika sohasini strategik yo'nalish deb belgilanishi, erkin iqtisodiy zonalarda yangi korxonalar tashkil etilishi va soliq va bojxona imtiyozlari, litsenziyalash jarayonidagi soddalashtirishlar hisobiga sodir bo'lgan. Shuningdek, ishlab chiqarilgan dori turlari soni 1220 dan 1925 tagacha ko'payib, o'sish 57 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich assortiment diversifikatsiyasi, ya'ni keng turdagi mahsulot ishlab chiqarish salohiyati oshganini ko'rsatadi. Agar mazkur yillardagi investitsiyalar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jalb qilingan investitsiyalar 2018 yildagi 74 mln dollardan 2024 yilga kelib 151 mln dollarga yetgan. Bu ikki baravar o'sishdan ziyodroq bo'lib, sohaga qiziqish va uning iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Investitsiyalarning o'sishi quyidagi omillarga bog'liq bo'lgan, ya'ni chet el sarmoyasi uchun qo'llab-quvvatlovchi siyosat, texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirishga ehtiyoj, generik va biotexnologik dori vositalarini ishlab chiqarishning kengayishi kabilar. Shu bilan birga, investitsiya faqat yangi korxonalarni qurishga emas, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, sifat tizimlarini joriy etish va GMP standartlariga moslashishga ham yo'naltirilmoqda. Farmasevtika sanoatidagi eksport hajmidagi o'sish 2018 yilda 19,6 mln dollardan 2024 yilda 56,8 mln dollargacha ortib, taxminan 2,9 barobarga ko'paygan [2, 4, 7, 13]. Bu tendentsiya, mahalliy mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligining oshishi, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikning rivoji, sertifikatlashtirish va xalqaro standartlarga moslashuv natijasidir. Bunday o'sish O'zbekistonning farmatsevtika sektori eksportbop mahsulotlar yaratish salohiyatini orttirganini, shuningdek, ichki bozorni to'yintirish bilan birga tashqi bozorlarga chiqish strategik yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik quyidagilar bilan belgilanadi:

- Korxonalar soni va investitsiya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri korrelyatsiya mavjud. Ya'ni har bir yangi korxona ortidan investitsiya hajmi oshib borgan.
- Ishlab chiqarish turlari soni va eksport hajmi o'rtasida ham ijobiy bog'liqlik bor, ya'ni assortiment kengaygayishi bilan eksport uchun yangi bozorlarga chiqish imkoniyati oshadi.
- Investitsiyaning o'sishi texnologik jabhada rivojlanishni ta'minlagan va bu mahsulot sifati yaxshilash va eksport salohiyatini oshishiga olib kelgan.

Quyidagi 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikada 2018-2024 yillar oralig'ida farmasevtika sanoati eksport hajmi ortib borgan.



1-rasm. 2018-2024 yillarda O'zbekistonda farmasevtika sanoati eksport hajmi

Masalan, 2018 yilda eksport hajmi 19,6 mln. AQSH dollarini hosil qilgan bo'lsa 2024 yilga kelib esa 56,4 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. 2024 yilda 2018 yilga nisbatan eksport hajmi 3 barobarga oshganini kuzatish mumkin [2, 4, 7, 14]. Respublikada eksport hajmini o'sishining asosiy sabablaridan ichki ishlab chiqarish hajmining oshishi va korxonalar sonining ortishi va sifatli dori vositalarining ishlab chiqarilishi, eksport yo'nalishlarining kengayishi, ya'ni keyingi yillarda yangi davlatlarga (Afg'oniston, Pokiston, Yaqin Sharq) eksportning boshlanishi bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sanoati - sog'liqni saqlash tizimini zaruriy dori-darmonlar, biopreparatlar va tibbiyot mahsulotlari bilan ta'minlaydigan muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqning hududiy joylashuvi bevosita bir necha geoiqtisodiy, demografik, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq. Geografik tahlil orqali ushbu omillarni aniqlash, resurslarni maqbul taqsimlash va farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. quyida farmasevtika sanoatini hududiy joylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi mazkur geografik omillarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Xomashyo resurslari va tabiiy-geografik omillar. Farmatsevtika sanoatida ishlatiladigan asosiy xomashyolar – dorivor o'simliklar, kimyoviy reagentlar va suv resurslari. O'zbekistonning tog'oldi va tog'li hududlarida (Farg'ona vodiysi, Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari) dorivor o'simliklarning turlari nisbatan ko'p. Masalan, Surxondaryo viloyatida 250 dan ortiq dorivor o'simlik turi uchraydi. Bu omil mazkur viloyatlarda dori-darmon ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Ishchi kuchi va demografik omillar. Farmatsevtika sanoati yuqori malakali ishchi kuchini talab qiladi. Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Andijon va Farg'ona viloyatlarida yirik oliy ta'lim muassasalari (Toshkent farmatsevtika instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti) mavjudligi bu hududlarni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi. Aholi zichligi yuqori bo'lgan viloyatlarda dori-darmon mahsulotlariga talab yuqori bo'lgani uchun bu yerda ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy jihatdan ham foydaliroq hisoblanadi.

3. Transport-kommunikatsiya infratuzilmasi. Farmatsevtika mahsulotlari tez buziluvchi yoki qat'iy saqlash sharoitlarini talab qiladigan bo'lganligi sababli, ularning tez va xavfsiz yetkazilishi muhimdir. Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlari orqali o'tuvchi avtomobil va temiryo'l tarmoqlari, shuningdek xalqaro aeroportlarning mavjudligi bu hududlarda farmatsevtika korxonalarining samarali faoliyat yuritishiga zamin yaratadi [2, 3, 5, 11].

4. Iqtisodiy va investitsiya muhiti. O'zbekiston hukumati tomonidan farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi bu tarmoqni hududiy rivojlantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, "Andijon-farm", "Sirdaryo-farm", "Zomin-farm" kabi erkin iqtisodiy zonalar farmatsevtika korxonalarining hududiy joylashuvini maqsadli yo'naltirmoqda.

5. Iste'mol bozorlariga yaqinlik. Yirik aholiga ega bo'lgan Toshkent shahri, Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatlari dori vositalariga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, bu hududlarda joylashgan farmatsevtika korxonalari o'z mahsulotlarini tezkor va samarali realizatsiya qilish imkoniyatiga ega [2, 3, 5].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, 2018–2024 yillarda farmatsevtika sanoatida barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror va tez sur'atda o'sgan. Bu tendentsiya soha uchun qo'yilgan strategik maqsadlar to'g'ri ekanini, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik samarali tashkil etilganini ko'rsatadi. Kelgusida ushbu ko'rsatkichlarni yanada oshirish uchun:

- yuqori texnologiyali ishlab chiqarish uskunalariga sarmoya kiritish,
- xalqaro sifat standartlarini joriy qilish,
- eksport geografiyasini kengaytirish va logistikani yaxshilash zarurligini ko'rsatmoqda.

Hozirgi paytda ba'zi xorijiy bozorlar O'zbek dori vositalarini hali tan olmayotganligi va logistika muammolari mavjud. Istiqbolda esa, 2026-yilgacha eksport hajmini 40 mln \$ ga yetkazish rejalashtirilgan va Yevropa talablariga javob beruvchi korxonalar sonini ortishi kutilmoqda.

O'zbekiston farmatsevtika sanoatining hududiy joylashuvi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular ichida tabiiy resurslar, demografik salohiyat, infratuzilma rivojlanganligi, iqtisodiy muhit va iste'mol bozori yaqinligi asosiy rol o'ynaydi. Bu tahlil natijalari tarmoqni yanada samarali rejalashtirish va istiqbolli hududlarni aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil, 1 yanvardagi 2022 – 2026 yillarda respublikaning farmasevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 55- sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5834287>.
2. Abdinazarova X., Mo'minov D.. O'zbekiston farmasevtika sanoatining rivojlanish tendensiyalari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. *Journal of Research and Innovation* 2.3 (2024): 54-59.
3. Abdinazarova X., Karimova M. Farg'ona viloyati sanoatining tarmoq va hududiy tarkibi. O'zMU xabarlari. 2024 yil, 3/2/1., Tabiiy fanlar turkumi. 159-162-bet.
4. Abdinazarova X.O., Abdug'afforov O'.A. Farg'ona viloyatida farmasevtika sanoatining rivojlanish holati va hududiy tarkibi. "Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Samarqand sh. 2024 yil, 17-18 may. 183-187-bet.
5. Abdinazarova, H. O. "Farg'ona iqtisodiy rayonida tashkil etilgan kimyo sanoat korxonalar faoliyatining geografik tavsifi." *ekonomika i sotsium* 3-2 (94) (2022): 351-356. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=48281612>.
6. Abdinazarova, X. O. "Geographic approach to the development of the network of chemical industry of Uzbekistan." *Ekonomika i sotsium* 9 (76) (2020): 3-7.
7. Abdinazarova, X. O., D. Mo'minova, and M. Dehqonova. "O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATINING TUTGAN O'RNI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR". *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*. Vol. 2. No. 12. 2023.
8. Boasson V., MacPherson A. The role of geographic location in the financial and innovation performance of publicly trade pharmaceutical companies: empirical evidence from the United States. // *Environment and Planning A* 2001, volume 33, pp. 1431-1444. <http://journals.sagepub.com/doi/10.1068/a3431>.

-
9. Jo‘raev SH.S. O‘zbekistonda sanoatni barqaror rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari. Monografiya. - T.; 2016. – B. – 24.
 10. Oripovna, A. K. "The Importance of Establishing a Cluster System in Improving the Territorial Structure of the Chemical Industry of Fergana Economic District." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 2.6 (2022): 135-140.
 11. Komilova N., and Abdinazarova. H. O. "The role and geographical features of the chemical industry in the development of the economy of Uzbekistan." *Ekonomika i sotsium* 5-1 (84) (2021): 248-255.
 12. To‘xliyev N. O‘zbek modeli: taraqqiyot tamoyillari. O‘zME. 2014 yil, 264 b.
 13. O‘zbekiston sanoati. Statistik to‘plamlari – 2018-2024 y.